

**TO'RTKO'L TUMAN AXBOROT – KUTUBXONA MARKAZI**  
**AXBOROT – BIBLIOGRAFIYA XIZMATI**



**“IKKI DAHO , IKKI BEBAHO”**

*(Buyuk mutafakkir Mir Alisher Navoiy va shoh va shoir Z. M. Bobir tavalludlariga)*

**TAVSIYA RO'YXATI**

**To'rtko'l -2023**

O'tmishdagi buyuk mutafakkirlarning dono fikrlari, o'gitlari, tafakkur mevalari, ijodiy yutuqlarini o'rganish xalqimizning ma'naviy dunyosini kengaytirish bilan bir qatorda, yosh avlodning barkamol inson bo'lib yetishishida muhim vositalardan biri sanaladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, sharq mutafakkirlaridan biri, o'zbek adabiyotining zabardast siymosi, komil inson kuychisi, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy merosini o'rganish, undan ta'limgarbiya jarayonida foydalanish har bir pedagogning vazifasi hisoblanadi. Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni xal etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, xalqimizning g'ururi, sha'n-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z xaloskoridir. Ta'bir joiz bo'lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biron bir xalq yo'qkili , u Navoiy sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa,"Agar bu ulug' zotni avliyo desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sulton'i"dir. O'zbek madaniyati va adabiyoti jahon ma'rifikatparvarlari tasavvurida, eng avvalo, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur singari ulug' siymolar timsolida gavdalaniadi. Ajdodlarimizning o'lmas ijodi asrlar osha millionlab kitobxonlar qalbini zabit etib, XXI asr o'quvchisi qalbiga ham oshno bo'lishda davom etmoqda. Alisher Navoiy o'zining boy ma'naviy merosi, shoh asarlari, nodir devonlari, betakror g'azal va dostonlari bilan bashariyat tamadduni va adabiyotiga beqiyos hissa qoshgan. Chunki alloma qalamiga mansub, yuksak mahorat va betakror soz san'ati ohangida, yaratilgan, ulkan tarbiyaviy ahamiyatga ega bolgan. Bebaho ijod namunalari asrlar osha o'z mazmun va sayqalini yo'qotmay, ulkan ma'naviy meros va adabiyotimiz gultojiga aylangan.

### ***Navoiy va Bobur***

Navoiyning ideal hukmdor haqidagi orzulari Bobur faoliyatida muayyan darajada aks etgan. Bobur o'zi tuzgan "Buyuk imperiya" da islohotlar o'tkazgan va mafkurasini mustahkamlagan. Buning nazariy asoslarini yaratish maqsadida diniy –falsafiy asarlari, harb ishiga oid kitoblar yozgan " Mubayyin " va qator risolalari bunga dalildir. Alisher Navoiygacha ham o'zbek yozma adabiy tili muayyan darajada shakllangan, she'riyatda ham an'analar mavjud edi. Alisher Navoiy o'zining turli mavzuga bag'ishlangan she'riy va nasriy asarlari orqali o'zbek adabiy tilini rivojlantirdi: u buning uchun o'zbek tili shevalari imkoniyatlaridan foydalandi,mavjud adabiy maktablarning an'analarini o'zlashtirib va umumlashtirib, yagona o'zanga soldi. "Navoiyning o'zbek tilida yozish haqidagi tashviqot va targ'ibotlari o'z davrida u kutgan darajada muvaffaqiyat qozonmagan bo'lsa ham, ammo o'zbek adabiyotining bundan keyingi " taraqqiyotida juda katta



ijobiy rol o'ynadi". Zahiriddin Muhammad Boburning she'riy va nasriy asarlari shundan dalolat beradi. Bobur Navoiyning "Oliy uslub" iga taqlid qilmagan,u oddiy turkona uslubda asarlar bitgan. Navoiy o'z asarlarida zamonaning juda muhim ijtimoiy va falsafiy masalarini ko'targan. Navoiy va Bobur ijodi bir davrda turli usullar mavjud bo'lismen yorqin namunasidir. "Boburnoma" juda sodda, ravon til bilan yozilgan. Bu fikrni Bobur she'riyati xususida ham aytish mumkin. Bobur o'ziga ustoz deb bilgan Navoiy ijodini chuqr ixlos bilan o'rgangan, ko'pgina g'azallarini yod bilgan."Boburnoma"ning 1499-1500 yillarga bag'ishlangan, bobida ruhiyatida vujudga kelgan bezovtalik haqida bunday yozdi; "gohi telbalardek yolg'iz pushta va dasht qa borur edim. Gohi bog'ot va mahallotni ko'cha- baako'cha axtarur edim. Ne yurumoqta ixtiyorim bore di,ne o'lturnoqta, ne bormoqta qarorim bor edi, ne turmoqta. Bobur g'azalida yo'qliqni baytma- bayt tadqiq qiladi va uning to'laqonli obrazini gavdalantiradi. Bobur g'azallari xususidagi fikrlarni uning ruboilyariga nisbatan ham aytish mumkin. Chunki Bobur ham o'z ruboilyarida Navoiyning odob-axloq va insoniy komillik mavzularini davom ettirgan. Masalan, Boburning ijtimoiy-siyosiy ahvoli bilan bog'liq,"yod etmas emish kishini gurbatda kishi" deb boshlanadigan ruboysi Navoiyning "G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish" misrasi bilan boshlanuvchi ruboysiga ma'no va mazmunan ohangdosh. Yoki Bobur: Raftoriyu qaddig'a ravanim sadqa, Bir boqishig'a ikki jahonim sadqa",- deganda, Navoiyning shu monand misralari esga tushadi. "kozim ichra yor tutib, konglimda manzil qilg'udek" misrasi esa "Qaro ko'zim" ning o'zgacha talqinidir. Bulardan kelib chiqib Bobur ijodi Alisher Navoiy ijodiga o'xshaydi, deb ayta olmaymiz. Lekin adabiy ta'sir masalalari doirasida Navoiy va Bobur ijodi o'rganilsa adabiyotshunoslikda yangilik bo'ladigan bir qator to'xtamlarga kelishi mumkin.

### *Shoir ijodiyoti.*

Alisher Navoiy ikki tilda mukammal ijod qilgan. Turkiy tilda "Navoiy", forsiy tilda esa "Foniy" taxalluslarini qo'llagan. Alisher Navoiyning adabiy va ilmiy merosini 4 faslga bo'lish mumkin:

- 1.Devonlar.
- 2.Dostonlari.
3. Forsiy tildagi she'riy merosi.
- 4.Ilmiy- filologik, nasriy va tarixiy asarlari Alisher Navoiyning o'zbek tilida yaratgan she'riy merosi asosan "Xazoyin ul-maoniy" devoniga jamlangan. Asar 4 qismdan iborat. Devonning birinchi qismida "G'aroyib us sig'ar" ("Bolalik g'aroyibotlari"), ikkinchi qismiga "Navodir ush-shabob" ("Yigitlik nodirotlari"), uchinchi qismiga "Badoye' ul-vasat" ("O'rta yosh badialari") va nihoyat, to'rtinchi qismiga "Favoyid ul-kibar" ("Keksalik foydalari") degan nomlar berildi.

"Xazoyin ul- maoniy" inson bolasining murakkab va yuksak tafakkuri hamda behisob his-tuyg'ulari bilan bog'liq minglarcha she'r va



o'nlarcha she'r turlarini o'z ichiga olgan majmua bo'lib, sharq adabiyoti tarixida noyob hodisadir. Bu xil majmua Alisher Navoiyga qadar Amir Xisrav Dehlaviy tomonidangina tuzilgan. Ushbu devonga kirgan minglarcha she'rlarni Alisher Navoiy butun umri davomida turli sharoitlarda, har xil sabablar bilan yozgan bo'lib, ular shoir hayoti va u yashagan davr bilan sonsiz- sanoqsiz iplar orqali bog'langan. Alisher Navoiy "Xazoyin ul-maoniy"ga qadar "Ilk devon", "Badoye"- bidoya", "Navodir un- nihoya" devonlarini tuzgan. "Xazoyin ul- maoniy" ana shu 3 devonga kirgan hamda"Navodir ul nihoya" tuzilgandan keyin yozilgan she'rlar asosida yuzaga kelgan.

### ***Shoirning o'z asarlaridagi ma'lumotlar.***



Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida ilk ma'lumot beruvchi manba bu shubhasiz ulug' shoirning o'z asarlaridir. Shoir garchi o'z tarjimai holini maxsus yozib qoldirmagan bo'lsa-da, lekin Navoiyning deyarli barcha asarlarida uning shaxsiyati, ijodiy va ijtimoiy faoliyati haqida muayyan fikrlar keltiriladi. Xususan, "Vaqfiya", "Munshaot" asarlarida ulug' shorning ijtimoiy faoliyati aks etsa, "Majolisu-n-nafois", "Xamsa", "Munojot", "Xazoyin ui- maoniy" kabi asarlarida shaxsiy hayoti, "Muhokamat ui- lug'atayn", "Xamsat ui-mutahayyin", Holoti sayyid hasan Ardasheri kabi asarlarida shor qalamiga mansub ba'zi asarlarining yozilish tarixi bilan bog'liq ma'lumotlarni uchratish mumkin.

### ***Zamondoshlarining asarlarida keltirilgan ma'lumotlar.***

Abdurazzoq Samarqandiyning "Matla'I sa'dayn va majmai bahrayn" ("Ikki baxtli sayyoralarining kelib chiqishi va daryolarning qo'shilishi") asari shoir haqida ma'lumot beruvchi ilk manbadir. Bu asar 1467-1470 yillar oralig'ida yaratilgan va bevosita hazrat Navoiyning nazorati ostida yakunlangan. Bu asardagi ma'lumotlar keyinchalik boshqa tarixiy asarlarda aynan takrorlanadi. O'sha davrning yana bir tarixchisi Muhammad ibn Xovandshoh Mirxonning "Ravzat us-safo" O'rta Sharq va Osiyo tarixiga bag'ishlangan bo'lib, Navoiy haqidagi ma'lumotlar asarning asosan 7- qismida- Sulton Husayn Boyqaro sultanati davri tavsifida uchraydi. Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkiratu-sh- shuar" ("Shoirlar tazkirasi") asari Alisher Navoiy nomi zikr etilgan ilk tazkiradir. Tazkirada besh asr davomida yashab faoliyat yuritgan 150 ga yaqin ijodkor haqida ma'lumot keltiriladi. Asar 1486 yilda yaratilgan bo'lib, muqaddima, 7 qism va xotimadan iborat. Hazrat Navoiy hayoti va faoliyatiga doir ma'lumot asarning xotima-muallifga zamondosh shoirlar haqidagi qismida keltirilgan.

Mu'iniddin Muhammad al- Zamjiy al- Isfizoriyning "Ravzatu-L-Jinnot" ("Jannat bog'i", 1492) asarida hazrat Navoiyning Bodgis viloyatining Chihil

duxtaron qasabasida rabot qurdirgani, Farididdin Attor mozori ustida ravoqli imorat solgani haqidagi ma'lumot keltiriladi.

Abdurahmon Jomiy: “ Kel, Jomiy, umr bo'yi mashaqqat tortib,ko'nglingdan shu “Besh ganj” ni dunyoga chiqarding. Sening bu “Besh”ing (“Xamsa” ng) shunday kuchli panja bo'ldiki, daryokaflar qo'li buralib ketdi... Biroq har xazina o'lchovchi (ya'ni yetuk shoir) qalamidan bu o'tar dunyo “Besh xazina” bilan boyigandir. U “Besh”liklarga sening “Besh”ing qachon tenglashardi ? Ularning bir xazinasi sening yuz xazinangdan yaxshidir.Xususan, u panjaki, ganjadan sarpanja urganda she'r kabi o'z sarpanjasini urdi,turkiy tilda bir ajoyib qo'shiq kuyladiki,jodu nafasilar og'zi muhrlandi. Bu qalamga falakdan ofarinlar yog'ilsin! Chunki bu yoqimli naqshni o'sha qalam yaratdi va forsiy til egalari, forscha nazm durlarini tuzuvchilarga rahm qildi: u ham shu forsiy tilda yozganda boshqalarga so'z aytishga majol qolmasdi. Bu mo'jizakor nazm tarozisi qarshisida Nizomiy kim-u, Xusrav kim bo'ldi? U boshqa tilda so'z yuritganidan aqlga oradagi farqni ajratish uchun yo'l qolmadidi. Ey (Navoiy), sening tab 'ing so'z ustodidir. Qalaming ochqichi bilan so'z eshigini ochding. Ravnaqdan qolib ketgan va xorlik burchagidan o'rinni olgan (Turkiy) so'zga sen yangidan obro' berding.Uni ijod maydoniga olib chiqding. U sening ra'yning nuridan safoli bo'ldi, lutfing navosi (boyligi)dan navoli (bahramand) bo'ldi”.

1960

1. Navoiy A. Hamsa. – Toshkent : Adabiyot va san'at,-720b.  
1983
2. Navoiy A. Mahbub ul-qulub.- Toshkent: Adabiyot va san'at,-112b.  
1986
3. Navoiy A. Hamsa. “Hayratul abror” va boshq.-Toshkent: Adabiyot va san'at,-424b.  
1987
4. Navoiy A. Qaro ko'zim.- Toshkent: Adabiyot va san'at,-768b.
- 5 . Navoiy A. Topmadim,- Toshkent: Adabiyot va san'at,- 783b.  
1989
- 6 . Navoiy A. Hayratul abror.- Toshkent: Adabiyot va san'at,-352b.

1990

7. Navoiy A. Mukammal asarlar toplami. 20 tomlik. T.6. Xazoyin-ul maoniylar :

- Favoyid ul-kibar.- Toshkent: Fan,-568b.
8. Navoiy A. Farhod va Shirin: [Doston] – Toshkent: O'zbekiston,-160 b.

1991

9. Navoiy A. “Saddi Iskandariy”(nasriy bayoni bilan)- Toshkent: G’. G’ulom,-832b.
10. Navoiy A. Munojot. –Toshkent: G’ G’ulom,- 32b.
11. Navoiy A. Sab’ai sayyor:(nasriy bayoni bilan) –Toshkent: G’. G’ulom,-544b.
12. El desa Navoiyni....: (Hazrat mir Alisher Navoiy haqida rivoyatlar )- Toshkent: Cho’lpon,-160b.

1993

13. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug’at.- Toshkent: Fan,-375b.
14. Ayyomi visol o’ldi yana: Yangi topilgan g’azallar.-Toshkent: Adabiyot va san’at,-32b.
15. Oybek. Bola Alisher.- Toshkent: Cho’lpon,-160b.

2009

16. Navoiy A. Lison ut- tayr:(nasriy bayon bilan)- Toshkent: G’ G’ulom,-544b.
17. Navoiy A. Vafo qilsang: G’azallar.- Toshkent: G’ G’ulom,-268b.

2015

18. Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. –Toshkent: G’. G’ulom,-431b.
19. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi.- Toshkent: “O’zbekiston” NMIU,-328b.

2016

20. Navoiy A. Hamsa.- Toshkent: Yangi asr avlodi,-544b.
21. Navoiydan 100 hikmat.- Toshkent: Yangi asr avlodi,-134b.

2018

22. Madayev O. Navoiy suhbatlari.- Toshkent: “O’qituvchi” NMIU,-248b.
23. Navoiy g’azaliyoti talqinlari.-Toshkent: “O’zbekiston” NMIU,-384b.
24. Manzar A. “Alisher Navoiy asarlarining izohli lug’ati”.- Toshkent:”O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”,-560b.

2019

25. Navoiy A. Nazm ul-Javohir.- Toshkent: Akademnashr,-144b.

2021

26. Rajabova B. "...Rub'i maskunida qahramon ul turur":[ A.Navoiy tavalludining 580 yilligi oldidan] // Xalq so'zi.-5fevr.
27. Rajabova B. Sohibi fan va sohibi fazl:[ Navoiyni anglash]// O'zbekiston adabiyoti va san'ati.-12noyab.
28. Eshboyev T. Bashariyat e'zozidagi buyuk siymo:[ A. Navoiy tavalludining 580 yilligi]// Xalq so'zi.-25noyab.

2022

29. Abadiyat gulshani:[ruboilyar]// Xalq so'zi.-9 fevr.
30. Bobojonov R. Bashariyat ma'naviyatining so'nmas mash'alasi:[ 9- fevral Alisher Navoiy tavallud topgan kun]// Xalq so'zi.-6 fevr.
31. Ja'ha'n adebiyatinin' ulli shayiri:[ 9-fevral A. Nawayiinin' tuwilg'an ku'ni]// Erkin Qaraqalpaqstan.-8fevr.
- 32.Qirg'izboyev M. Xalqimizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag'ishlovchi beba ho meros:[ 9- fevral Alisher Navoiy tavallud topgan kun]// Xalq so'zi.-8 fevr.
33. Tog'ayeva N. Navoiyni qachon anglaymiz? // Ishonch.-8 fevr.
34. Pirimqulov A. "Chor devon"ga kiritilmagan g'azallar:[ Tahlil]// Xalq so'zi.-9 fevr.
35. Salohiy D. Inson qadri tarannumi:[Talqin]// Xalq so'zi.-9 fevr.
36. Ahmedova O. Buyuk shoir qabri ziyyorati:[ Yodnoma ] // Xalq so'zi.- 9 fevr.
37. Bobojonov R. Asrlar osha nur sochayotgan ezgulik mayog'I : [ Dunyo nighohi ] // Xalq so'zi.-9 fevr.
38. Karimov A. Ma'naviyatimizning so'nmas quyoshi : [ Ehtirom ] // Xalq so'zi.-10 fevr.
39. Tohirov S. Ilm zavqini tuygan zot: [ Tahlil ] // Xalq so'zi.- 10 fevr.
40. Alisher Navoiy tavalludining 581 yilligi [ horijiy mamlakatlarda ham keng nishonlanmoqda ] // Xalq so'zi.-10 fevr.
41. Namozova Z. " Abrorlar hayrati ", yohud " Hayrat-ul abror" dan hayratlar: [aqdimot ]// Ishonch.-12 fevr.
42. Saburova S. Hamkorlikdagi adabiy-badiiy kecha : [ A. Navoiy tavalludiga 581 yil ] // To'rtko'lнома.-28 fevr.
43. Settiyev J. Alisher Navoiy-milliy iftixorimiz: [ Buyuk shoir va mutafakkir tavalludining 581 yilligiga bag'ishlanadi ] // To'rtko'lнома.-28 fevr.

## **ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR- ADOLATLI SHOH VA BUYUK SHOIR.**



Vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Bobur ( 1483-1530 ) O'rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she'riyatida o'ziga xos o'rin egallagan adib, shoir, olim bo'lish bilan birga, yirik davlat arbobi va sarkarda hamdir. Bobur keng dunyoqarashi va mukammal aql- zaakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida davlat arbobi sifatida nomi qolgan bo'lsa, serjilo o'zbek tilida yozilgan " Boburnoma" asari bilan jahonning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan mustahkam o'rin oldi. Uning nafis g'azal va ruboiylari turkiy she'riyatining eng nodir durdonalari bo'lib, " Mubayyin " ( " Bayon etilgan " ) " xatgi Boburiy ", " Harb ishi ", aruz haqidagi risolalari islom qonunshunosligi, she'riyat vatlil nazariyasi sohalariga munosib hissa bo'lib qo'shildi.

Tarixiy ma'lumotlarda ayttilishicha, Boburning Hindistonga yurishida Dehli hukmdori Ibrohim Sulton siyosatidan norozi bo'lgan Panjob hokimlari ham Boburni qo'llaganlar va Sikri jangidagi bu g'alaba Boburga Hindistonda o'z hukmronligini uzul-kesil o'rnatish va Boburiylar sulolasini barpo etish imkoniyatini berdi. Boburiylar sulolasi hindistonda 300-yildan ortiq vaqt hukmronlik qildi.

Bobur bu g'alabadan keyin uzoq yashamadi-1530-yil dekabr oyida, Agra shahrigda vafot etdi va keyinroq uning vasiyatiga ko'ra farzandlari uning xokini Kobulga keltirib dafn etdilar.

Boburning davlat ishlaridagi xizmati nimada? Avvalo, u Hindistonda siyosiy muhitni barqarorlashtirish, mamlakat yerlarini birlashtirish, shaharlarni obodonlashtirish, savdo-sotiq masalalarini to'g'ri yo'lga qo'yish bog'- rog'lar yaratish ishlariga shaxsan o'zi hopmiylik qildi. Hozirgacha mashhur bo'lgan me'moriy yodgorliklar, bog'lar, kutubxonalar, karvonsaroylar qurdirish, ayniqsa, uning o'g'illari va avlodlari davrida kengaydi, deyish mumkin. Hindiston san'ati va me'morchiligiga Markaziy Osiyo uslubining kirib kelishi Bobur va uning hukmdor avlodlari huzurida o'sha davrning ilg'or va zehni o'tkir olimlari, shoirlari, musiqashunoslari va davlat arboblarini mujassam etgan mukammal bir ma'naviy-ruhiy muhit vujudga kelgandi. Boburiylar davlatidagi madaniy muhitning Hindiston uchun ahamiyati haqida hind xalqining mashhur arbobi Javoharla'l Neru shunday yozgan edi: " Bobur Hindistonga kelgandan keyin Katga siljishlar yuz berdi va yangi rag'batlantirishlar hayotga, san'atga, arxitekturaga toza havo baxsh etdi, madaniyatning boshqa sohalari esa bir-birlariga tutashib ketdi " .


Bobur Hindistonda katta hajmdagiadolatli davlat ishlari bilan bir qatorda, adabiy-badiiy faoliyatini ham davom ettirdi va yuqorida zikr etilgan asarlarini yaratdi. Boburning butun jahon ommasiga mashhur bo'lgan shoh asari “Boburnoma” hisoblanadi. Ma'lumki, unda Bobur yashagan davr oralig'ida Movarounnahr, Xuroson, Eron va Hindiston xalqlari tarixi yaxshi yoritilgan. Asar asosan uch qismdan iborat bo'lib, uning birinchi qismi- XV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda ro'y bergan voqealarini; ikkinchi qismi-XV asrning oxiri va XVI asrning birinchi yarmida Kobul ulusi, ya'ni Afg'onistonda ro'y bergan voqealarini; uchinchi qismi- XVI asrning birinchi choragida Shimoliy Hindiston xalqlari tarixiga bag'ishlangan. “Boburnoma”da o'sha davrning siyosiy voqealarini mukammal bayon qilinar ekan, o'z yurti Farg'ona viloyatining siyosiy-iqtisodiy ahvoli, uning poytaxti Andijon shahri, Markaziy Osiyoning yirik shaharlari: Samarqand, Buxoro, Qarshi, Shahrizabz, O'sh, Urganch, O'ratega, Termiz va boshqa shaharlar haqida nihoyatda nodir ma'lumotlar keltirilgan. Unda Kobul ulusining yirik shaharlari Kobul, G'azna va ular ixtiyoridagi ko'pdan-ko'p tumanlar, viloyatlar, Shimoliy Hindiston haqida ma'lumotlarni uchratish mumkin. “Boburnoma”ni varaqlarkanmiz, ko'z oldimizdan Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindiston xalqlariga xos bo'lgan fazilat va nuqsonlar, ularning tafakkur olamini kengligi va murakkabligi bilan birga, o'sha davrdagi hayot muammolari, Bobur davlatidagi siyosiy va ijtimoiy hayotning to'liq manzarasi namoyon bo'ladi.

Murakkab davr voqealari hodisalari batafsil bayonini “Boburnoma”da ko'rgan bo'lsak, shoh va shoir Boburning ichki kechinmalarini, qalb tug'yoni va orzu-a'rmonlari uning she'rlarida ko'rindi. Bobur she'riyatida Vatan tuyg'usi, Vatan sog'inchi, unga qaytish umidi mavj urib boshladi.

Tole' yo'qki jonimg'a balolig' bo'ldi,  
 Har ishnikim, ayladim xatolig' bo'ldi,  
 O'z yerin qo'yib Hind sori yuzlandim,  
 Yorab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.

Bobur lirikasida yor vasli, uning go'zalligi, hijron azobi, ayrilik' alamlari, visol quvonchlari go'zal va mohirona ifoda etiladi.

Xazon yaprog'I yanglig' gul yuzung hajrida  
 sarg'ardim,  
 Ko'rib rahm aylagil, ey lola ruh, bu chehrai  
 zardim.  
 Sen ey gul, qo'ymading sarkashligingni



sarvardek hargiz,

Ayog'ingga tushib bargi xazondek muncha  
yolvordim.

Shoir o'z lirik she'rlarida har doim odamlarni yaxshilikka, adolat, insonparvarlikka, yuksak insoniy tuyg'ularni qadrlashga chaqiradi:

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,  
Har kimki javo qilsa, jafo topqusidur.  
Yaxshi kishi ko'rmag'ay yomonlig' hargiz,  
Har kimki yamon bo'lqa, jazo topqusidur.

Zahiriddin Muhammad Bobur lirik she'rlari va tarixiy "Boburnoma"-sidan tashqari,islom qonunshunosligi va tasavvufda yaxshi asarlar yaratgan.

Xulosa shuki, adolatli shoh va buyuk shoir Bobur o'zining ma'lum va mashhur asarlari bilan tarixnavis adib, lirik shoir hamda ijtimoiy masalalar yechimiga o'z hissasini qoshgan olim sifatida xalqimiz ma'naviy madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirdi.


Bobur ijodini o'rganish.

Bobur ijodini o'rganish 1958-yilga qo'yilgan. Sharof Rashidov Bobur ijodini o'rganish uchun alohida e'tibor qilgan.Bobur asarlari nashr qilingan va Hamid Sulaymonov Bobur miniatyuralarining nusxalarini xorijdan olib kelib nashr qilgan.

Sharqshunos Sabohat Azimjonova Bobur xayoti va tarixi to'g'risida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan va fundamental monografiy nashr qilgan.

Bobur nafaqat buyuk sarkarda, shoh balki buyuk shoir bo'lgan.Bobur haqida o'zbek xalq yozuvchisi Pirimql Q odirov "Yulduzli tunlar" asarini yozgan. Bu asar aynan Boburning yoshligidan to vafot etgunga qadar voqealarini o'z ichiga qamrab oladi.

Andijonlik tabiatshunos olim Zokirjon Mashrabov rahbarlik qiladigan Xalqaro Bobur jamg'armasi (1993.23.12) Bobur ijodini o'rganishda katta ishlarni amalga oshirdi.Jamg'armaning ilmiy ekspeditsiyasi 10 dan ortiq Sharq mamlakatlari bo'ylab avtomobilda ilmiy safarlar uyushtirib,200 ming km dan ortiq masofani bosib o'tdi,Bobur va Boburiylar qadamjolari, ularning ilmiy merosiga oid yangi ma'lumotlar to'plab,ularni ilmiy iste'molga kiritdi.



Mazkur ma'lumotlar asosida 10dan ziyod ilmiy, hujjatli, badiiy asarlar(Z.Mashrabov, S. Shokarimov: "Asrlarni bo'ylagan Bobur"; S. Jalilov:"Boburning Farg'ona davlati", "Bobur va Andijon"; Qamchibek Kenja:"Hind sorig'a"; X. Sulotonov:"Boburning tushlari", Boburiynoma"; R. Shamsuddinov:"Boburiylar izidan", "Boburiylar sulolası"; T. Nizom:"Uch so'z), 10 ga yaqin hujjatli, videofilmlar ( F.Rasulov: " Bobur izidan", "Muqaddas qadamjolar"; T. Ro'ziyev:" Bobur salomi", " Bobur nomidagi Xalqaro ilmiy ekspeditsiya"; T. Hamidov: "Iftixor" va h.k.) yaratildi. Jamg'armaning Lohur ( Pokiston), Haydarobod ( Hindiston}, Abu Dabi ( Birlashgan Arab Amirliklari), Moskva ( RF), O'sh Qirg'iziston), Toshkent, Namangan (O'zbekiston) shaharlarida bo'limlari mavjud. 1998-yil Jamg'armaning Boburshunoslik sohasidagi xalqaro mukopfotlari ilk marta Pirimkul Qodirov, Sabohat Azimjonova, G'aybulloh as-Salom, Ne'matilla Otajonov, Xayriddin Sultonov, Eyje Mano ( Yaponiya), Muhammadali Abduqunduzov, Maqsud Yunusov, Shafiqa Yorqin ( Afg'oniston ), Ma'murjon To'xtasinov, Ravshan Mirtojiyev, Majid Tursunov, Rahmonjon Azimov, Muhammadjon Mirzayevga berildi.

### *Nashr qilingan asarlari.*

1993

1. Бобур З.М. Китобу-с-салот./ масъул мухаррир А. Рустам.- Тошкент: А. Кодирий номидаги халк мероси нашриёти,-726.

1996

2. Шох ва шоир Захириддин Мухаммад Бобур. Назм дурдоналари.- Тошкент: Шарқ,-174б.

1982

3. Бабур Захириддин. Мухаммад. Избранная лирика.- Ташкент: Узбекистан,-128с.

2010

4. Кодиров Пиримкул. Тил ва эл/ Бадиалар/ П. Кодиров.- Тошкент: "Маънавият",-296б.

2015

5. Ламб Харольд. Бобур- Йулбарс: Буюк Бобурийларнинг биринчиси / X. Ламб; Таржимон Г. Сатимов.- Тошкент: "O'zbekiston",-296б.

6. Бобур Захириддин. Мухаммад. Бобурнома:- Тошкент: "Юлдузча",- 366б.

2017

7. Кулдошев Дурбек. Императорнинг тугилиши: тарихий хикоялар/ Д. Кулдошев.- Тошкент: "Узбекистон миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти,-320б.

2018

8.Bobur Zahiriddin. Muhammad. Boburnoma/ Z. M. Bobur; O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi; Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot Muzeyi; Xalqaro Bobur fondi.- Toshkent:"O'qituvchi" NMIU,-368b.

9.Кодиров П. Юлдузли тунлар. Бобур [ Матн] / П.Кодиров.-Тошкент: "O'qituvchi" NMIU,-568b.

10. Qodirov P. Avlodlar dovoni [roman]"Abadiy barhayot asarlar" turkumi.- Toshkent: "Adabiyot uchqunlari",-640b.

2022

11.Шарипов Х. Улуглар меросига эхтиром:[маърифат соати]/Х.Шарипов// Ishonch.-12 февр.

12. Машрабов З. Абадият гулшани:Бори элга яхшилиг килгилки...:[мерос]/З.Машрабов// Халк сузи.-12февр.

13. Болтабоев Х. Янги топилган кулёзма-ноёб ва мукаммал:[хушхабар]/Х.Болтабоев// Халк сузи.-12февр.

14. Каримов Д. Мирзо Бобур ёздирган тошбитиклар: [Бу кизик]/Д. Каримов// Халк сузи.-12февр.

15. Ражабова Б. Иккинчи Ренессанс даври маданий хаёти солномаси:[тадқикот]/Б.Ражабова // Халк сузи.-12 февр.

16. Бобур мероси авлодлар эъзозида: (эхтиром]// Халк сузи.-15 февр.

17. Бобур дахосига эхтиром [ З.М. Бобур таваллудининг 539 йиллигига]// Ishonch.-15 февр.

18. Бобожонов Р. Башарият учун кадрли сиймо: [дунё нигохи]/ Р.Бобожонов // Халк сузи.-16 февр.

19.Пайзуллаев К. Уллы ойшыл хем саркарда:[адебий кеше]/ К.Пайзуллаев// Еркин Каракалпакстан.-17 февр.

**Tuzuvchi:**

**Axborot- bibliografiya**

**xizmati bibliografi:**

**M. Ro'zimbetova.**